



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№2(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 156 sahifa,
2-fevral, 2026-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Kasbiy mahorat va tajribalarni rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullari	22
<i>Yo'ldasheva Feruzaxon Shavkatbekovna</i>	
O'zbek tili darslarida 5E modelini qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirish: Chimboy tumani 36-sonli ixtisoslashtirilgan maktab misolida	26
<i>Kojamuratova Ulbosin Punkitbaevna</i>	
Shaxs ijtimoiy faolligi: tushuncha va tahlil	29
<i>Baxriyeva Nargiza Axmadovna</i>	
Fiziognomika va psixologik yondashuvlar asosida portret qalamtasviri ta'limini takomillashtirish	33
<i>Babadjanov Axmadjan Xudayberdiyevich</i>	
Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini pedagogik texnologiyalar asosida rivojlantirish	37
<i>Nusharov Bobir Bolbekovich</i>	
Личностные характеристики как ассимиляция системы отношений младших школьников и предмет воспитательного воздействия учителя	41
<i>Олимова Азиза Кахрамоновна</i>	
"Vitagen ta'lim texnologiyalari" asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarda perseptiv qobiliyatni rivojlantirishga o'rgatishning didaktik imkoniyatlari	47
<i>Tursunboyeva Kamola Iloxmon qizi</i>	
Ekologik ta'lim va tarbiya asosida talabalarda ekoturistik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik-metodik asoslari	50
<i>Kamolov Baxtiyor Xasanboyevich</i>	
Individual ta'lim trayektoriyasi: maktabgacha yoshdagi bolalarda ekspressiv nutq buzilishlarining o'ziga xos xususiyatlari	54
<i>Fayziyeva Nozima Oybek qizi</i>	
Boshlang'ich sinf matematika darslarida mantiqiy masalalardan foydalanish samaradorligi	59
<i>Ibragimova Nozima Ulug'bekovna, Pardayeva Hosila Qudratulla qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyachining kreativ roli	64
<i>Botirova Lobar Kamolovna</i>	
O'quvchilarda mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	69
<i>Kaipova Tazagul, Kaipova Elmira</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini zamonaviy kasb-hunarlariga qiziqitirishda integrativ usullardan foydalanish	73
<i>Ergasheva Nigora Erkinovna</i>	
Proposals for the Development of Education in Teaching Musical-Historical and Theoretical Subjects	76
<i>Sobirova Gulkhayo Aktamjonovna</i>	
Raqamli ta'lim sharoitida talabalarda mediakompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslari	81
<i>Rustemov Abseit Trijan o'g'li</i>	
Hamkorlik ko'nikmalarini takomillashtirishga oid tajriba-sinov ishlarini tashkil etish mazmuni	85
<i>Baxramova O'ramol Uralovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining matn ustida ishlash orqali o'quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini rivojlantirishda nazariy asoslanish mohiyati	88
<i>Boxodirova Muxlisa Xoljigitovna</i>	
Zoologiya fanini o'qitish jarayonida talabalarning ilmiy-tadqiqot faolligini rivojlantirish mexanizmlari	92
<i>Dushekeeva Nasiba Rustembaevna, Arepbaev Islambek Muratbaevich</i>	
Ingliz tilini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarning roli	96
<i>Ergasheva Mehriyona</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining tasviriy ko'nikmalarini shakllantirishning nazariy asoslari	100
<i>Jummayeva Sayyora Shokir qizi</i>	



The Role of Digital Technologies and Virtual Reality in Modern English Teaching Methodologies	104
<i>Seilkhanova Rita Nurniyazovna, Kalbaeva Mexriban Elbrus qizi</i>	
Sog'lom separatsiya orqali yoshlar sog'lig'ini mustahkamlash: tibbiy-psixologik yondashuvning empirik tahlili	109
<i>Mavlyanova Surayo Sultanaliyevna</i>	
Badiiy-tarixiy meros asosida pedagog shaxsini tarbiyalash: nazariya va amaliyot uyg'unligi	112
<i>Qodirova Mavluda Maxodir qizi</i>	
Gamified Programming Platforms: Analysis and Recommendations	116
<i>Ra'nokhon Ne'matjon kizi Rakhimova</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida giperaktiv bolalar bilan ishlashning ilmiy-nazariy asoslari	123
<i>Raimqulova Sojida Abdusaid qizi</i>	
Qandli diabet bilan og'rikan bemorlarga pedagogik yordam ko'rsatish tizimi.....	126
<i>Shermatova Yakut Sabirovna</i>	
O'smirlar o'rtasida kiberbulling	129
<i>Tashbekova Aziza Mirsuxbatovna</i>	
Uzoq muddatli davolanishga muhtoj bolalar uchun tyutorlik yordamini tashkil etish	132
<i>Tolipova Pokiza Xasan qizi, Isamuxamedova Dildora Raxmatilayevna</i>	
Zamonaviy maktablarda xavfsizlik madaniyatining roli.....	135
<i>Turdiyeva Zilola Jalilovna</i>	
Global akademik reyting va raqobat muhitida xalqaro olimpiadalarning o'rni	138
<i>Xalikova Umida Mirovna</i>	
Tarbiyachining bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatish jarayonidagi o'rni	143
<i>Xasanova Shaxnoza To'xtasinovna, Rahimova Umida Abdurasul qizi</i>	
Biologiya darslarida TIMSS topshiriqlarini integratsiyalash.....	148
<i>Zayniyev Suxrobjon Islombek o'g'li, Komiljonova Muslima Shuxrat qizi</i>	
О трансверсальных компетенции воспитателя дошкольного образования.....	153
<i>Садыкова Шоиста Акбаровна, Назарматова Дилшода Умаралиевна</i>	



SHAXS IJTIMOYIY FAOLLIGI: TUSHUNCHA VA TAHLIL

Baxriyeva Nargiza Axmadovna

Toshkent texnologiya, menejment va kommunikatsiya instituti
Pedagogika va psixologiya kafedrasida dotsenti, ps.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada olimlar, pedagoglar, sotsiologlar, faylasuflar va psixologlar tomonidan "ijtimoiy faollik" tushunchasiga berilgan ta'riflar tahlil qilinadi. Psixologiya fanida ijtimoiy faollik shaxsning jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, o'zgalar bilan ijtimoiy munosabatlarga kirishishi hamda ijtimoiy muammolarni hal etishga intilishi sifatida talqin etiladi. O'tkazilgan tahlillar "ijtimoiy faollik" kategoriyasining instrumental funksiyasini aniqlashtirish va uning zamonaviy ilmiy talqinini asoslashga qaratilgan. Psixologik va pedagogik adabiyotlarni tahlil qilish asosida ijtimoiy faollik tushunchasining turli ilmiy yo'nalishlarda keltirilgan ta'riflari izohlanadi.

Kalit so'zlar: faollik, ijtimoiy faollik, ijtimoiy faoliyat, jamiyatdagi faollik, shaxs va muhitning o'zaro munosabati, shaxs, harakat.

Abstract: This article analyzes definitions of the concept of "social activity" proposed by scientists, educators, sociologists, philosophers, and psychologists. In psychology, social activity is interpreted as an individual's active participation in social life, engagement in interpersonal relationships, and efforts aimed at solving social problems. The conducted analysis is focused on clarifying the instrumental function of the category of social activity and substantiating its contemporary scientific interpretation. Based on the analysis of psychological and pedagogical literature, definitions of the concept of social activity presented in various scientific approaches are explained.

Key words: activity, social activity, social behavior, public activity, interaction between personality and environment, personality, action.

Аннотация: В статье анализируются определения понятия "социальная активность", представленные учёными, педагогами, социологами, философами и психологами. В психологии социальная активность рассматривается как активное участие личности в общественной жизни, её взаимодействие с другими людьми и стремление к решению социальных проблем. Проведённый анализ направлен на уточнение инструментальной функции категории социальной активности и обоснование её современной научной интерпретации. На основе анализа психологической и педагогической литературы раскрываются различные научные подходы к определению данного понятия.

Ключевые слова: активность, социальная активность, социальная деятельность, общественная активность, взаимодействие личности и среды, личность, действие.

KIRISH

Zamonaviy jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlarning markazida inson, shaxs turadi. Inson omilining roli ortib borishi munosabati bilan shaxsning ijodiy salohiyatidan foydalanish, o'z-o'zini tarbiyalash va o'z-o'zini rivojlantirish vazifalari ustuvor yo'nalishlar sifatida ilgari surilmoqda. Ushbu jarayonlarning asosiy vositasi sifatida jamiyat hayotining turli sohalarida shaxsning ijtimoiy faolligi namoyon bo'ladi.

Jamiyatni hayotiy ustunovkalar va qadriyatlar yo'nalishlari tizimiga mos ravishda o'zgartirish taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi hisoblangan inson faoliyati orqali amalga oshadi. Shu sababli zamonaviylikning muhim muammolaridan biri jamiyatning progressiv rivojlanish omili bo'lgan yoshlarning ijtimoiy faolligi hisoblanadi.

"Ijtimoiy faollik" tushunchasi bir qator ijtimoiy va gumanitar fanlarning (psixologiya, pedagogika, sotsiologiya, falsafa) tadqiqot obyekti hisoblanadi. Ushbu fanlarda mazkur tushunchaga ba'zan noaniq, ba'zan esa qarama-qarshi ta'riflar beriladi.

Ko'pgina tadqiqotlarda ijtimoiy faollik subyektning o'zini va ijtimoiy reallikni anglash hamda o'zgartirishga qaratilgan jamiyat bilan o'zaro bog'liq jarayon sifatida talqin etiladi.

Ijtimoiy faollik subyekt va muhit o'rtasidagi o'zaro munosabat jihatlarini o'rganadigan asosiy fenomen hisoblanadi. "Ijtimoiy faollik" atamasi yoshlar ijtimoiy tashkilotlarining zamonaviy shakllarini yaxlit tuzilma sifatida shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

"Ijtimoiy faollik" atamasi falsafa, sotsiologiya, psixologiya, pedagogika va boshqa fanlarda mualliflik hamda ensiklopedik ta'riflarga ega. Shu sababli zamonaviy dunyoda ijtimoiy faollikning dolzarbligini aniqlash, ushbu atamaning muammolarini tadqiq etishda instrumental va funksional jihatdan to'liq ta'rifni aniqlash maqsadida uning turli talqinlarini tahlil qilish zarurati yuzaga keladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

"Ijtimoiy faollik" tushunchasiga ko'plab psixolog olimlar – L.S. Vigotskiy, S.L. Rubinshteyn, D.N. Uznadze, G.M. Andreyeva, L.I. Ansiferova, D.M. Arxangelskiy, V.T. Afanasyev, M.S. Kagan, K.K. Platonov, A.V. Petrovskiy, E.T. Yudin va boshqalar – tomonidan ta'rif berilgan. Ushbu mualliflar ijtimoiy faollik tushunchasini turlicha talqin qiladilar: ayrim hollarda uni jamiyatdagi faollik tushunchasiga qarama-qarshi qo'yadilar, ayrim hollarda esa ushbu tushunchalarni aralashtirib yuboradilar.

V.Z. Kogan ijtimoiy faollikka quyidagicha ta'rif beradi: "Ijtimoiy faollik shaxsning ongli va maqsadga yo'naltirilgan faoliyati bo'lib, dialektik jihatdan o'zaro bog'liq holda subyektning atrofida voqelik jarayonlari va hodisalariga ta'sir darajasini yoki o'lchovini belgilovchi va tavsiflovchi yaxlit ijtimoiy-psixologik sifatlar majmuasidir".

Kupreychenko ijtimoiy faollikning turlarini quyidagi mezonlarga asoslanib farqlaydi^[4]:

- qiziqishga asoslangan tomonlarni qamrab olish kengligiga ko'ra (faollik muayyan guruh, jamiyat, insoniyat yoki shaxs ehtiyojlarini qondirishga qaratilishi mumkin);
- tashabbus ko'rsatish manbaiga ko'ra (reaktiv, faol, oldini oluvchi);
- maqsadi va tabiatiga ko'ra (gumanitar, tiklovchi, qidiruvchi, demonstrativ, nazorat, tinchlikparvar, ijodiy va boshqalar). Faollikka tarbiyaviy, faollashtiruvchi, axborotga yo'naltirilgan, tashkillashtiruvchi faoliyat turlari kiradi;
- amalga oshirish sohasiga ko'ra (madaniy, ta'limiy, kasbiy, oilaviy, ijtimoiy rivojlanish, sog'liqni saqlash, badiiy-estetik, sport, siyosiy, fuqarolik-huquqiy, iqtisodiy va boshqalar);
- subyektga ko'ra (ijtimoiy faollik alohida shaxs, kichik va katta guruhlar doirasida namoyon bo'ladi);
- intensivligi yoki darajasiga ko'ra (passivlikdan giperfaollikkacha);
- vaqtinchalik xususiyatlariga ko'ra (chastotasi va davomiyligi). Ushbu mezonlarga muvofiq faollik qisqa muddatli, uzoq muddatli, doimiy, tizimli bo'lishi mumkin. Intensivlikning vaqt davomida o'zgarishiga ko'ra esa u tug'iluvchi, shakllanuvchi, o'suvchi, so'nuvchi turlarga ajratiladi;
- jamiyat uchun foydaliligiga ko'ra. Ushbu ko'rsatkich nisbatan muhim bo'lsa-da, uni baholash murakkab hisoblanadi. Ko'pincha faollik ijtimoiy va aksil-ijtimoiy funksiyalarni birlashtirishi mumkin. Masalan, norasmiy yoshlar tashkilotlarining ayrim turlarida ishtirok etish shular jumlasidandir.

Shunday qilib, ijtimoiy faollik shakllari va turlarining xilma-xilligi tadqiqotchilardan uning mazmuni va dinamikasini chuqur tahlil qilish, shuningdek, samaradorlik mezonlarini aniqlashga jiddiy yondashishni talab etadi.

M.V. Kocherova F.N. Ilyasov ta'rifiga asoslanib, ijtimoiy faollikni turli ko'rinishdagi ijtimoiy faoliyatning o'lchovi sifatida talqin qiladi. Ushbu yondashuvning asosiy farqi shundaki, mazkur atama E. Kachalova va M.V. Kocherovanning boshqa talqinlariga teskari bo'lib, "faollik" tushunchasining hosilasi sifatida ishlatiladi. Ijtimoiy faollikni ijtimoiy faoliyat o'lchovi sifatida qo'llash alohida e'tiborga loyiqdir, chunki bu holatda ijtimoiy faollik turli faoliyat turlarini baholash mezoni sifatida namoyon bo'ladi.

F.N. Ilyasovga ko'ra, "ijtimoiy faollik" atamasi "harakat" kategoriyasining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bundan tashqari, G.M. Kodjaspirova va A.Yu. Kodjaspirovlar ushbu tushunchaga pedagogik nuqtai nazardan yondashib, ijtimoiy faollikni insonning jamiyat hayotiga faol munosabati sifatida izohlaydilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Faollikning maqsadi, motivlari, harakat shakllari va natijalari faoliyatga asoslangan yondashuv doirasida tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv L.S. Vigotskiy va A.N. Leontyevlarning faoliyat nazariyasiga tayanadi. Tadqiqot metodologiyasining mazmuniga ko'ra, shaxs faolligi uning ichki xususiyatlari – qadriyatlar, ehtiyojlar, motivlar – hamda tashqi omillar, ya'ni ijtimoiy sharoit, turli guruhlar va ijtimoiy institutlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida shakllanadi.



TAHLIL VA NATIJALAR


Ilmiy muomalada qo'llaniladigan "ijtimoiy faollik" tushunchasining ko'plab talqinlarini mualliflar konsepsiya mazmuniga kiritilgan asosiy tarkibiy qismlarga qarab tasniflash mumkin. Shunday qilib, "ijtimoiy faollik" atamasini obrazli tarzda o'zaro ta'sir kategoriyalariga ko'ra quyidagicha guruhlash mumkin: "shaxs", "harakat", "ijtimoiylashuv" va "shaxs-muhit". Ushbu toifalarga kiruvchi barcha tahlillar muayyan xususiyatlarga ko'ra tizimlashtirilgan (harakatli jarayon, o'zaro ta'sir, atamaning aniqlashtirilgan tasviri va boshqalar). Turli lug'atlar va mualliflar ishlarida har bir kategoriya bo'yicha tegishli ta'riflar mavjud.

"Shaxs-muhit" tushunchasini izohlashda mazmun jihatdan yaqin bo'lgan shaxs va muhit o'rtasidagi o'zaro ta'sir hisobga olinadi. "Ijtimoiy faollik" – bu muayyan tarixiy davrda jamiyat, sinf yoki ijtimoiy guruh oldida turgan muammolarni hal etishga ongli ravishda yo'naltirilgan inson faoliyatining shakllari majmuasidir [2].

Ijtimoiy faollik tushunchasiga "Falsafiy lug'at"da quyidagicha ta'rif berilgan: "Ijtimoiy faollik – jamiyatdagi individ va ijtimoiy guruhlar faoliyatining mohiyatini aks ettiruvchi tushuncha" [2]. Yu.L. Vorobyova va B.N. Korolyova ta'riflariga ko'ra, ijtimoiy faollik faollikning oliy shakli hisoblanadi. U materiyani tashkil etishning ijtimoiy darajasiga mos keladigan, subyektning ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siri bilan shartlangan va namoyon bo'ladigan shaxsga xos faoliyat turi sifatida qaraladi. Ushbu jarayonda subyekt va muhitning o'zgarishi sodir bo'ladi [1].

Faylasuflardan L.P. Buyeva, L.N. Mitroxin, A.G. Xripkova, S.S. Bateninlar ijtimoiy faollikni subyektning atrof olam bilan o'zaro munosabati shakli hamda ijobiy ifodalangan tomoni bilan tavsiflanadigan har qanday faoliyatning alohida holati sifatida talqin qilishni taklif etganlar. "Shaxs-muhit" kategoriyasiga oid ta'riflar ijtimoiy faollik mohiyatini subyektning ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siriga yo'naltirilgan jarayon sifatida ko'rib chiqadi. Ushbu ta'riflar shaxs yoki jamiyatga bevosita murojaat qilmasdan, aynan o'zaro ta'sir jarayonining o'zini tahlil qiladi.

"Falsafiy lug'at"larda "subyektning jamiyatdagi harakati" asos qilib olinadi. Ushbu ta'riflardan ko'rinadiki, mazkur yondashuv jamiyatni ham, shaxsni ham alohida obyekt sifatida emas, balki ularning o'zaro ta'siri jarayonini tadqiq etadi. Binobarin, ijtimoiy faollik subyektning ijtimoiy muhit bilan o'zaro ta'siri yoki faoliyati jarayonidan iboratdir. Faylasuflardan L.P. Buyeva, L.N. Mitroxin, A.G. Xripkova, S.S. Bateninlar ham ushbu fikrni qo'llab-quvvatlab, ijtimoiy faollikni "ijobiy ifodalangan tomon bilan tavsiflanadigan faoliyat holati" sifatida izohlaydilar hamda bu jarayonni amalga oshiruvchi ijobiy funksiyalar va ijtimoiy ahamiyatga ega tasavvurlarni alohida ta'kidlaydilar.



"Ijtimoiy faollik" tushunchasi tahlili tipologiyasi

1 Лебедев М.Д. "К вопросу о формировании понятия "социальная активность"" /научная статья/. <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-formirovani-ponyatiya-sotsialnaya-aktivnost/viewer>

“Shaxs–muhit” kategoriyasini talqin qilishning mantiqiy xulosasi Yu.L. Vorobyov va B.N. Korolyovlar tomonidan berilgan bo‘lib, ularga ko‘ra, ijtimoiy faollik faollikning eng yuqori shakli sifatida namoyon bo‘ladi va “subyekt hamda muhitning o‘zgarishi sodir bo‘ladigan, subyektning ijtimoiy faoliyatdagi ijtimoiy muhit bilan o‘zaro ta‘sir jarayoni” sifatida ta‘riflanadi. “Subyekt va muhitning o‘zgarishi” tushunchasi o‘zaro ta‘sir jarayonining sodir bo‘lishi subyekt va muhitning yanada rivojlanishiga olib kelishini anglatadi.

Sotsiologik yo‘nalishlarda “ijtimoiy faollik” atamasi keng qo‘llaniladi va hodisa, holat hamda munosabat sifatida talqin etiladi. “Milliy jamoatchilik fondi” sotsiologik ensiklopediyasida ijtimoiy faollik ijtimoiy subyektning (shaxs, guruh, jamiyat yaxlitligi) xususiyatlari va sifatleri majmuasini tavsiflovchi sotsiologik kategoriya sifatida izohlanadi. Ushbu yondashuvga ko‘ra, subyekt ijtimoiy taraqqiyotning obyektiv qonuniyatlarini aks ettirgan holda o‘zi uchun belgilangan maqsad sari rivojlanadi ^[5].

S.L. Komarovaga ko‘ra, ijtimoiy faollik – insonning munosib hayot kechirishi va jamiyat taraqqiyotida faol ishtirok etishi uchun jamiyat tomonidan taqdim etilgan potentsial imkoniyatlar yig‘indisining rivojlanish intensivligi bilan tavsiflanadigan tizimli jarayondir ^[3]. Ushbu talqin avvalgi ideallashtirilgan yondashuvlardan farqli ravishda zamonaviy dunyoqarash va real ijtimoiy manzarani aks ettiradi.

“Milliy jamoatchilik fondi” sotsiologik lug‘atida keltirilgan ushbu ta‘rifda o‘zini rivojlantirish jarayonining ahamiyati alohida ta‘kidlanadi: “subyekt ijtimoiy taraqqiyotning obyektiv qonuniyatlarini aks ettirgan holda o‘zi uchun belgilangan maqsad sari rivojlanadi”.

Muammoga bo‘lgan alohida e‘tibor so‘nggi o‘n yillikda shaxs va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro munosabat jarayoniga qiziqishning kuchayganligini ko‘rsatadi. Bu holat, o‘z navbatida, shaxs institutlarining rivojlanishiga olib kelgan. Natijada, ijtimoiy faollik ijtimoiy subyektning (indivd, guruh, umuman jamiyat) xossalari va sifatleri yig‘indisi bilan tavsiflanadigan kategoriya sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu xususiyatlar orqali subyekt o‘zi uchun belgilangan maqsad sari rivojlanadi va ijtimoiy taraqqiyotning obyektiv qonuniyatlarini aks ettiradi.

Psixologik nuqtai nazardan, faoliyat holat sifatida shaxsning ehtiyojlari va qiziqishlariga asoslangan hamda harakatga ichki tayyorlikni ifodalovchi sifat sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, faoliyat munosabatlar shaklida turli sohalarida subyektlarning o‘zini o‘zgartirishga qaratilgan o‘z-o‘zini faollashtirish jarayoni sifatida ham namoyon bo‘ladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

“Ijtimoiy faollik” atamasi turli soha olimlari tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, yuqorida mazkur tushunchaga har bir fan sohasi tadqiqot obyektining mazmuni nuqtai nazaridan yondashgan ta‘riflar keltirildi. Umuman olganda, olimlar ijtimoiy faollikni shaxsning ongli ravishda voqelikdagi ijtimoiy sharoitlarni o‘zgartirishga va ijtimoiy jarayonlarda faol ishtirok etishga qaratilgan faoliyati sifatida talqin etish lozimligini ta‘kidlaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Воробьев Ю.Л., Королёв Б.Н. В поисках смысла и правды. Активность и развитие личности. – М.: Изд-во МГСУ “Союз”, 2003. – Т. 1. – 500 с.
2. Глоссарий [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.glossary.ru/cg>
3. Комарова С.Л. Социальная активность как фактор развития социального потенциала личности старшеклассника [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://library.rspu.ryazan.ru/search/search_newspaper_fulltext.php?id=976
4. Купрейченко А.Б. Проблема определения и оценки социальной активности // Психология индивидуальности. Материалы IV Всероссийской научной конференции. – М.: Логос, 2012.
5. Лебедев М.Д. К вопросу о формировании понятия “социальная активность” [научная статья]. – Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/k-voprosu-o-formirovanii-ponyatiya-sotsialnaya-aktivnost/viewer>
6. Социологическая энциклопедия. Национальный общественно-научный фонд. – М.: Мысль, 2003. – 694 с.
7. Философский словарь [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www.edudic.ru/fil/1160/>

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №2(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.